O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ANVAR OBIDJON TAVALLUDIGA 70 YIL”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

TOSHKENT-2017

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan tashkil etilgan **"ANVAR OBIDJON TAVALLUDIGA 70 YIL"** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To'plam materiallaridan filolog mutaxassislar, til va adabiyot o'qituvchilari, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, soha bilan qiziqqan barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldir)

TAHRIR HAY'ATI:

Sh. Sirojiddinov - f.f.d., professor, ToshDO'TAU rektori
N. Mahmudov - f.f.d., professor, ToshDO'TAU ilmiy ishlar bo'yicha prorektori
I. Yo'ldoshev - f.f.d., professor, ToshDO'TAU o'quv ishlari bo'yicha prorektori
A. Sobirov - f.f.d., professor, ToshDO'TAU ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori
I. Azimov - f.f.d., dotsent
R. Niyozmetova - p.f.d., professor
T. Matyoqubova - f.f.n., dotsent
G. Jo'rayeva - f.f.n. (Mas'ul muharrir)
M. Do'stmurodov -ToshDO'TAU "Yosh filolog olimlar jamiyati" MK raisi

TAQRIZCHILAR:

R. Barakayev - f.f.n., dotsent
D. Rajabov - f.f.n.

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2016-yil 29-dekabrdagi -sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



BOLALARNING HAQIQIY SHAYDOSI

Anvar Obidjon 1947-yil 8-yanvarda (hujjat bo'yicha 25-yanvarda) Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi Poloson qishlog'ida tug'ilgan. Aytishlaricha, bu qishloqqa qadimda mashhur bo'lgan Bolosog'un shahriga havas qilib nom berilgan, bora-bora, kishilar tilida Polosonga aylanib ketgan.

Yosh Anvar o'z qishlog'idagi 13-maktabning yettinchi-sakkizinchi sinflarida o'qib yurganida chekka mahallalar aholisiga tekin xizmat ko'rsatuvchi sayyor kinochiga shogird tushib, kasb o'rgandi, 9-sinfda Farg'ona shahridagi 11-maktabda kechki sinfda tahsil oldi, so'ng yana Oltiariqqa qaytib, 1-maktabning kechki sinfida o'qish bilan birga, paxta tayyorlash zavod-punktida traktorchilik qildi. Maktabni bitirgach, tog' orasiga joylashgan qirg'izovul "Rudnik-kon"ida kon burg'ilovchisi bo'lib ishladi, Poloson qishloq IjroQo'mi qoshidagi kutubxonani boshqardi, Samarqand Moliya texnikumini tugalladi, 1966-1969-yillarda harbiy xizmatni o'tadi.

Harbiy xizmatdan qaytib, avvaliga o'z qishlog'idagi kolxozda paxtachilik brigadasi tabelchi-hisobchisi, keyinchalik qo'shni qishloqdagi kolxozda "Grajdan" mudofaasi shtabi boshlig'i, klub mudiri bo'lib ishladi. Tuman gazetasiga muxbirlikka o'tgach, boshqatdan "Mehnat daftarchasi"ochdirib, hayotining ko'pdan orzulab yurgan yangi davrini top-toza sahifadan boshladi:

01.02.1971 – 01.02.1972	Oltiariq tumani "Paxta uchun" gazetasida adabiy xodim.
01.02.1972 – 09.11.1976	Shu gazetada qishloq xo'jalik bo'limi mudiri.
06.10.1977 – 15.05.1978	Toshkent Yog'-moy kombinatida bog'bon.
18.01.1979 – 01.02.1980	Farg'ona radiosida muharrir.
01.02.1980 – 15.06.1981	Shu joyda katta muharrir.
16.06.1981 – 02.12.1985	Toshkentdagi "Yosh gvardiya" nashriyotida muharrir.
02.12.1985 – 03.09.1986	Shu joyda bosh muharrir o'rinbosari.
03.09.1986 – 13.01.1987	"Yulduzcha" (keyinchalik "Cho'lpon") nashriyoti bosh muharriri.
15.04.1987 – 20.12.1988	"Yosh kuch" jurnalining shtatdan tashqari xodimi.
20.12.1988 – 17.07.1989	"Mushtum" jurnalida bo'lim mudiri.
17.07.1989 – 12.12.1996	Cho'lpon nashriyoti bosh muharriri.
12.12.1996 – 21.04.1998	Shu nashriyot direktori.
01.06.1998 – 01.06.2007	O'zbekiston teleradiokompaniyasida katta muharrir.

Anvar Obidjon 1974-1979-yillar davomida hozirgi Toshkent Milliy universitetining jurnalistika fakultetida sirtdan ta'lim oldi. U 1969-yilda turmush qurib, 1970-yilda Bahrom, 1972-yilda Bahodir, 1975-yilda Bobur, 1978-yilda Botir, 1980-yilda Bunyod ismli farzandlar ko'rdi. Mustaqillikkacha hukumat nishonlari, adabiy mukofotlar bilan taqdirlanmagan, 2014-yilda Koreyada o`tkazilgan Markaziy Osiyo va koreys xalqlari ertakchiligi mavzusidagi to`rt kunlik forumda ishtirok etganligini hisobga olmaganda, o`zi fuqaro bo`lmish mamlakatdan tashqariga sayohatga chiqmagan.

Ko'p qirrali adib sifatida tanilgan Anvar Obidjon bolalar uchun ham, kattalar uchun ham qator qissalar, she'rlar, dostonlar, hikoyalar, pyesalar bitgan. Hozirga qadar (2016) quyidagi kitoblari nashr etildi:

1. "Ona Yer". (Bolalarga she'rlar. Toshkent, "Yosh gvardiya" nashriyoti,1974-yil, 3 bosma taboq, 48 bet, qirq besh ming nusxa).
2. "Bahromning hikoyalari". (Bolalarga she'rlar. Rangli. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashr. 1980-yil, 2 b/t, 32 bet, o'n ming nusxa).
3. "Ey, Yorug' dunyo..." (Bolalarga qissa. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti, 1983-yil, 5,5 b/t, 64 bet, oltmish ming nusxa).

4. "Olovjon va uning do'stlari". (Bolalarga qissa va hikoyalar. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashr. 1983-yil, 5 b/t, 112 bet, qirq ming nusxa).
5. "Alamazon i yego pexota". (Bolalarga rus tilida qissa va hikoyalar. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashr. 1984-yil, 5,5 b/t, 128 bet, oltmish ming nusxa).
6. "Bezgakshamol". (Kattalarga hajviy g'azallar. Toshkent. O'zKP MK (hozirgi "Sharq") nashriyoti, 1985-yil, 2 b/t, 40 bet, qirq to'rt ming nusxa).
7. "Ketmagil". (Kattalarga lirik she'rlar. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti, 1985-yil, 3 b/t, 112 bet, besh ming nusxa).
8. "Masxaraboz bola". (Bolalarga she'r va dostonlar. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashr. 1986-yil, 4 b/t, 128 bet, o'n besh ming nusxa).
9. "Akang qarag'ay Gulmat". (Kattalarga qissa, hangoma, hajviy g'azallar. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashr. 1987-yil, 10 b/t, 192 bet, qirq besh ming nusxa).
10. "Juda qiziq voqea". (Bolalarga she'rlar, dostonlar. Toshkent. "Yulduzcha" nashr. 1987-yil, 10 b/t, 224 bet, yigirma ming nusxa).
11. "Oltin yurakli Avtobola". (Bolalarga qissa va hikoyalar. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashr. 1988-yil, 6 b/t, 144 bet, oltmish ming nusxa).
12. "Dahshatli Meshpolvon". (Bolalarga qissa va pesalar. Rangli. Toshkent. "Yulduzcha" nashr. 1989-yil, 13 b/t, 224 bet, yetmish besh ming nusxa).
13. "Yerliklar". (Kattalarga hajviyalar. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashr. 1990-yil, 10 b/t, 208 bet, o'ttiz ming nusxa).
14. "Grozniy Meshpalvan". (Bolalarga rus tilida qissalar, hikoyalar. Toshkent. Cho'lpon nashr. 1991-yil, 21 b/t, 336 bet, yetmish besh ming nusxa).
15. "Alamazon va Gulmat hangomasi". (Kattalarga qissa, pesa, hajviy g'azallar. Toshkent. Cho'lpon nashriyoti, 1992-yil, 18 b/t, 352 bet, o'n ming nusxa).
16. "Ajoyibxona". (Bolalarga taqvim. Rangli. Toshkent. Cho'lpon nashriyoti, 1993-yil, 4 b/t, 32 bet, o'n besh ming nusxa).
17. "Meshpolvonning janglari". (Bolalarga qissa va doston. Toshkent. Cho'lpon nashriyoti, 1994-yil, 10 b/t, 192 bet, o'ttiz ming nusxa).
18. "Alisher ila Husayn yoki uch dono va o'g'ri". (Bolalarga she'lar va doston. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti, 1996-yil, 3,5 b/t, 32 bet, besh ming nusxa).

19. "Alamazon va Gulmat" (Kattalarga qissalar, hajviy g'azallar. 1992 yildagining o'zgargani. Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti, 1998-yil, 15 b/t, 288 bet, o'n ming nusxa).
20. "Oltiariq hangomalari". (Kattalarga hajviyalar, hangomalar. Toshkent. "Ma`naviyat" nashr. 1999-yil, 10 b/t, 192 bet, besh ming nusxa).
21. "Bulbulning cho'pchaklari". (Bolalarga hikoyalar, g'azallar. Rangli. Lotin harfida.Toshkent. "Sharq" nashriyoti, 2001-yil, 5,5 b/t, 48 bet, besh ming nusxa. Yana besh ming nusxa qayta nashr).
22. "Odobli bo'lish osonmi?" (Bolalarga hikoya. Rangli. Lotinda. Toshkent. "UZINKOMSENTR" nashriyoti, 2001-yil, 0,5 b/t, 8 bet, ikki ming nusxa).
23. "Bezgakshamol – 2". (Kattalarga hajviy g'azallar. Toshkent. "Sharq" nashryoti, 2003-yil, 3,5 b/t, 64 bet, besh ming nusxa).
24. "O'q o'tmas bolakay". (Bolalarga qissalar, hikoyalar. Lotinda. Toshkent. "Sharq" nashriyoti, 2005-yil, 15 b/t, 256 bet, besh ming nusxa).
25. "O'g'irlangan pahlavon". (Bolalarga she'rlar, dostonlar. Lotinda. Toshkent. Cho'lpon nashriyoti, 2006-yil, 10 b/t, 136 bet, uch ming nusxa).
26. "Tanlangan she'rlar". (Kattalarga she'rlar. Lotin va kirill harflarida. Qalin muqova. Toshkent. "Sharq" nashr. 2006-yil, 17 b/t, 360 bet, uch ming nusxa).
27. "Bahromning hikoyasi". (Bolalarga she'r. Lotinda. "O'zing bo'ya" turkumida suratli. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashr. 2006-yil, 1 b /t, 8 bet, besh ming nusxa).
28. "Soliq nima?" (Bolalarga huquqiy-iqtisodiy mavzuda badiiy-publitsistik qo'llanma. Rangli. Lotinda. Toshkent. "Art Press" nashriyoti, 2008-yil, 4 b/t, 56 bet, uch ming nusxa).
29. "Meshpolvon". (Bolalarga qissa. Lotinda. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti, 2009-yil, 9 b/t, 152 bet, uch ming nusxa).
30. "Baloga qolgan futbolchi". (Kattalarga hajviyalar. Qalin muqova. "Sharq" nashriyoti, 2010-yil, 14 b/t, 288 bet, uch ming nusxa).
31. "O'q o'tmas bolakay yoxud oltin yurak". (Bolalarga qissalar va hikoyalar. To'ldirilgan nashr. Lotinda. Qalin muqova.Toshkent. "Sharq" nashriyoti, 2011-yil, 21 b/t, 400 bet, besh ming nusxa).
32. "Mushuk bibi miyovladi yoki jonivorlar bilan so'zlashuv". (Uy hayvonlari va parrandalari bilan tillashuv haqida kichkintoylar uchun yo'riq. Lotinda. Rangli. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti, 2012-yil, 2 b/t, 16 bet, uch ming nusxa).

33. "Mitti Baroq berar saboq". (Bog'cha bolalari uchun yo'l harakati qoidalari haqida she'riy yo'riqlar. Lotinda. Rangli. Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012-yil, 1,5 b/t, 24 bet, besh ming nusxa).
34. "Onamning mamlakati". (Esse va she'rlar. Lotinda. Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, 2013-yil, 1,0 b/t, 20 bet, besh yuz nusxa).
35. "Jajji-jajji kulchalar". (Bolalarga she'rlar. Lotinda. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2013-yil, 6,5 b/t, 104 bet, besh ming nusxa).
36. "Meshpolvon jangga otlandi". "KAMOLOT" KUTUBXONASI" turkumidan. (Bolalarga qissa va hiroya. Lotinda. Toshrent, "Yangi asr avlodi" nashryoti, 2014-yil, 11,5 b/t, 216 bet, besh ming nusxa).
37. "0099 raqamli yolg`onchi". "FARZANDLARIMIZGA QIZIQ KITOBLAR" turkumidan. (Bolalarga qissa va hikoyalar. Lotinda. Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2014-yil, 7,1 b/t, 136 bet, besh ming nusxa).
38. "Kulgili tushlar". "FARZANDLARIMIZGA QIZIQ KITOBLAR" turkumidan. (Bolalarga qissa va hikoyalar. Lotinda. Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2014-yil, 10,5 b/t, 200 bet, besh ming nusxa).
39. "Atrofimizdagi qiziqchilar". "FARZANDLARIMIZGA QIZIQ KITOBLAR" turkumidan. (Bolalarga qissa va hikoyalar. Lotinda. Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2014-yil, 9,45 b/t, 180 bet, besh ming nusxa).
40. "Alamazon va uning piyodalari". "FARZANDLARIMIZGA QIZIQ KITOBLAR" turkumidan. (Bolalarga qissa va hikoya. Lotinda. Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2014-yil, 8,4 b/t, 160 bet, besh ming nusxa).
41. "Tanlangan she'rlar – 2". (Kattalarga she'rlar. Lotin va kirill harflarida. Qalin muqova. Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2014-yil, 18,5 b/t, 352 bet, ikki ming nusxa).
42. "Mulla baqaloq". (Bolalarga she'rlar. Lotinda. Rangli. Qalin muqova. Toshkent, "Akademnashr" nashriyoti, 2014-yil, 4,0 b/t, 64 bet, uch ming nusxa.
43. "Ajinasi bor yo`llar". (Turmush kechinmalari. Qalin muqova. Toshkent, "O`zbekiston" nashriyoti, 2015-yil, 20,0 b/t, 432 bet, uch ming nusxa).
44. "Chudaki vokrug nas". (Bolalarga qissa va hikoyalar. Rus tilida. Toshkent, "NISO POLIGRAF" nashriyoti, 2016-yil, 7 b/t, 136 bet, uch ming nusxa).
45. "Qizg'anchiq futbolchilar". (Bolalarga she'riy doston va ertaklar.

Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2016-yil, 7 b/t, 96 bet, besh ming nusxa).

46. "Kezargon Boychechak". (Bolalarga qissa va hikoyalar. Lotin va kirill harflarida. Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, 2016-yil, 9 b/t, 160 bet, uch yuz nusxa).
47. "Quyonning tug'ilgan kunida". (Bolalarga she'rlar, rangli, lotinda, Toshkent, "Hilol-nashr" nashriyoti, 2016-yil, 1,5 b/t, 24 bet, besh ming nusxa).

Anvar Obidjonning dramaturgiyadagi faoliyati bolalarga atalgan "Qo'ng'iroqli yolg'onchi" nomli komediyasi 1983-yilda Toshkent Yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilishidan boshlandi. Shundan e'tiboran ushbu teatrda hamda Farg'ona, Qarshi, Qo'qon, Guliston teatrlarida uning "Pahlavonning o'g'irlanishi", "Topsang-hay-hay" ("Qorinbotir)", Samozvanets" ("Qo'ng'iroqli yolg'onchi"ning ruschasi), "Navro'z va Boychechak", "To'tiqul", "Alamazon", "Meshpolvon" kabi pyesalari qo'yildi. "O'zbekfilm" kinostudiyasida bu adib ssenariylari asosida "Tilsimoy – g'aroyib qizaloq", "Dahshatli Meshpolvon" komediyalari kino tasmasiga tushirilgan.

Anvar Obidjonga 1998-yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berilgan. "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni (2011), "Shuhrat" medali (1997) bilan taqdirlangan.

QUSHLAR TABRIGI

Tursunboy Adashboyev
Shoir Anvar Obidjon bag'ishlayman

Quvnab bulbul ilhomidan,
Asal totib gul jomidan,
Avval qalamga tushmagan
Parrandalarning nomidan,
Dovvot qilib Oqqush patin
Yozdik atay qutlov xatin.
...Qondirgani tashnalarni
Obod qildik chashmalarni.
Zarg`aldoqlar sayrab ketdi.
Go`yo olam yayrab ketdi.
Ular Sochni imlar edi
Ixlos qo`yib tinglar edi.

Pachoqlab chiq ekranni
O'zgart qismat chizig'n
Tilsin befarq ko'zlarni
To'zgan oyna sinig'i...

Sen- uvol qiz hurmati
Arzir olam o'kransa,
Ellar yanchib kin-qasdin
Tinch yashashni o'rgansa.

She'rni o'qigan odam boshqa millat vakili boshqa bir millat farzandiga achinish kozi bilan qaraganini ko'rishiz mumkin. Shoir hattoki qizaloqni politsay taqibidan qochish uchun yo'l ham ko'rsatadi. Qizaloqni himoya qilish uchun uni bag'riga bosishga va nabirasi Abdullodan qolgan o'yinchoqlarni ham qizaloqga berishga ham tayyor. Qizaloqqa achinganidan taqdir chizzig'ini o'zgartishini ham istamoqda. Shoirning bu she'ri orqali naqadar bolajon, bolaga mehribon ekanliklarini ham ko'ramiz. Biz bolalar yozuvchisi Anvar Obidjonni bolalar dunyosi bilan yaqin, bola ko'nglini tushuna oluvchi, bolalaruchun yozgan asarlarda bola bo'la oluvchi H.H.Niyoziy, A.Avloniy,A.Qahhor, X.To'xtaboyev, S.Mahmudovlar qatoriga qo'sha olishimiz yuqoridagi fikirlarimizning yorqin isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Obidjon "Ey, yorug', dunyo". Tosh. G'.G'ulom, 1983-yil.
2. A.Obidjon "Akang qarag'ay Gulmat". Tosh. Yosh gvardiya, 1987-yil.
3. A.Obidjon "O'q o'tmas bolakay yoxud oltin yurak". Tosh. Sharq, 2011-yil.
4. A.Obidjon "Tanlangan she'rlar". Tosh. Sharq, 2014-yil.

ZAMONAVIY O'ZBEK BOLALAR SHE'RIYATIDA BADIY OBRAZ VA POETIK TAFAKKUR

Shohida Mo'minova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tadqiqotchisi

Bolalar adabiyoti har qanday millatning ma'naviy asoslarini mustahkamlovchi, kelajak avlod tafakkurini shakllantiruvchi muhim badiiy vositadir. Ayniqsa, bolalar she'riyati orqaligina bola qalbiga go'zallik, axloq, tabiat, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi tushunchalarni singdirish oson va tabiiy kechadi. She'riyat bolani quvontiradi, fikrlashga undaydi, tasavvurini uyg'otadi.

Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyati taraqqiyotida obrazlilik, badiiy tafakkur va estetik anglash doimiy o'zgarib, yangilanib borayotgan jarayondir. Bugungi shoirlarning asarlarida bola ruhiy olamiga mos tushadigan, u anglay oladigan, ammo estetik zavq uyg'otadigan obrazlar va ifodalar tizimi shakllangan.

Maqolada aynan zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatida ishlatilayotgan badiiy obrazlar, ularning yaratilish usullari, poetik tafakkurning ko'rinishlari, shuningdek, shoirlarning bola ongiga murojaat qilishdagi uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Dilshod Rajab, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov kabi adiblarning asarlari asosida poetik tafakkur va badiiy mahorat o'rganiladi.

Bolalar she'riyatida obrazlilik tushunchasi.

Obrazlilik — badiiy ijodning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, u orqali adib muayyan hayotiy holat, tushuncha yoki hissiyotni estetik shaklda ifodalaydi. Bolalar adabiyotida obrazlilik yana-da katta mas'uliyat bilan yondashiladigan jihat, chunki bola o'z atrofini obrazlar orqali idrok qiladi.

Bolalar she'riyatida obrazlar odatda real hayotdagi narsa-hodisalar bilan bog'liq: qush, daraxt, ona, do'st, oy, bulut, tong, yomg'ir, gullar kabi. Biroq bu tasvirlar oddiy ta'rif emas, balki bolaga o'z ruhiy holatini tushunishga, tasavvur qilishga yordam beruvchi badiiy vositalardir.

Masalan, Dilshod Rajabning quyidagi satrlariga e'tibor qilaylik:

"Bulut egilib ketdi,

Yelkamdan bir o'pdi-da..."[1]

Bu yerda bulut obraz sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, u bolaning quvonchli his-tuyg'ularini ifodalashga xizmat qilmoqda. Oddiy ob'ekt – bulut – shoirona tasvir orqali bola bilan yaqinlashadi, quvnoq, beg'ubor holatni yaratadi.

Obrazlilik faqat tashqi tasvir emas. U:

Poetik ifoda (tashbeh, jonlantirish, epitet, metafora),

Ruhiy holat (quvonch, sog'inch, muhabbat),

Bola tiliga yaqinlik orqali amalga oshiriladi.

G'afur G'ulomning mashhur "Men yetim emasman" she'rida esa bola qahramonining ichki olami otaning ruhi orqali jonlantirilgan:

"...Dadang osmonda, deb aytishdi menga..."[2]

---

[1] Rajab D. Oq kaptar. — Toshkent: Yosh gvardiya, 2005. — B. 17.

[2] G'ulom G'. Men yetim emasman. — Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 1981. — B. 12.

Bu satr orqali bola — otasini yo'qotgan bo'lsa ham, tasavvurida u bilan muloqotda bo'lib turadi. Obraz — osmon, ruhiya — orzu, ona — mehr timsollariga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, obrazlilik — bolalar she'riyatining estetik yadro qismlaridan biri. Bola tafakkuri obraz orqali shakllanadi, aynan obraz orqali u she'rni eslaydi, sevadi va his qiladi.

Shoirning poetik tafakkuri va bola psixologiyasi

Poetik tafakkur — bu shoirning dunyoni badiiy-estetik idrok etishi, uni poetik tasvir orqali ifodalash qobiliyatidir. Bolalar she'riyati uchun bu jarayon yanada murakkab tus oladi, chunki bola nafaqat asarning ma'nosini anglay olishi, balki undan ruhiy oziqa olishi kerak. Shu bois shoir bolalar psixologiyasini chuqur bilishi va unga mos tarzda poetik tasvirlar yaratishi muhimdir.

Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida bu tafakkur quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Oddiy so'zlar orqali chuqur ma'no berish;
bolaning fikrlash darajasiga tushish, lekin uni ortga tortmaslik;
bolalik xotirasi, orzulari, his-tuyg'ulari bilan uyg'unlikda yozish.

Masalan, Erkin Vohidovning "Tong nafasi" to'plamidagi she'rlarida poetik tafakkur orqali tabiat va bola orasidagi ruhiy bog'liqlik yaratiladi. Shoir tabiatni emas, balki bolaning ichki dunyosini tasvirlaydi, lekin bu tabiat orqali yuzaga chiqadi:

"Quyosh nur sochdi, bola kuldi,
Ertalab birgalikda uyg'ondilar..."[3]

Bu yerda quyosh — shunchaki yorituvchi emas, quvonchning obrazidir, bola esa — quyoshning aksidir. Bu poetik tafakkurning o'ziga xos ko'rinishidir: hissiyotlar orqali tasvirlar bog'lanadi, bolaga tanish hislar orqali estetik qabul shakllanadi.

Dilshod Rajabda esa bu tafakkur yanada lirika bilan sug'orilgan. Uning obrazlari — bulut, kaptar, oy, daraxt — barchasi bolaning yuragida yashaydigan mavjudotlar kabi. Ular gapiradi, o'padi, yig'laydi, orzu qiladi. Bu poetik tafakkurda insonlashtirish (personifikatsiya) usuli muhim rol o'ynaydi:

"Oy meni quchdi tunda,
Sochimdan silab o'tdi..."[4]

Bunday obrazlar orqali bola ona mehrini, tabiat go'zalligini, kuchli tuyg'ularni his qiladi. Va bu hislar asarlar o'qilgandan keyin ham bolalik ongida saqlanib qoladi.

Shoir bolalar she'riyati orqali bola tafakkurini shakllantiradi. Poetik tafakkur bolaning ruhiga, tuyg'usiga, xayoliga yaqin obrazlar vositasida amalga oshadi. Bu esa nafaqat she'rni, balki bolalikni go'zallashtiradi.

Estetik ifoda va tasvir vositalarining roli.

---

[3] Rajab D. Oq kaptar. — Toshkent: Yosh gvardiya, 2005. — B. 19.
[4] Vohidov E. Tong nafasi. — Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 1974. — B. 25.

Bolalar she'riyati tasvirsiz, obrazsiz bo'lishi mumkin emas. Zero, bola she'rni ko'z bilan emas, qalbi bilan ko'radi. Shu bois badiiy tasvir vositalari — tashbeh, jonlantirish (personifikatsiya), metafora, epitet, parallelizm kabi uslublar bolalar she'riyatida keng qo'llaniladi. Ammo bu vositalar bolaga begona bo'lmasligi, balki uning tasavvur olamiga mos, sodda va esda qolarli bo'lishi zarur.

Masalan, G'afur G'ulom bolalar uchun yozgan ko'plab she'rlarida tasvir vositalarini o'quvchiga sezilmasdan, tabiiy tarzda olib kiradi:

"Yomg'ir quyilar osmondan,
Toylar yugurar loy ichra."[5]

Bu yerda yomg'ir va toy — ikkita faol obraz. Bola ushbu tasvir orqali tabiatdagi jonlilikni his etadi. Jonli harakatlar — "quyilar", "yugurar" — obrazni yanada kuchaytiradi. Bunday uslub she'rni o'qishga emas, "sezishga" majbur qiladi.

Estetik ifoda vositalaridan jonlantirish bolalar she'riyatida eng ko'p ishlatiladi. Dilshod Rajabning she'rlarida bu usul o'zining lirik ruhiyati bilan ajralib turadi:

"Shamol sochlarimni taradi,
Barglar oyimga qaradi..."[6]

Bu satrlar orqali shoir bolaning ichki ruhiy holatini tabiat obrazlari orqali ifodalaydi. Shamol — mehribon qo'l, barglar — sog'inch ko'zlari. Estetik zavq bolaning qalbiga bevosita yetib boradi.

Poetik san'at vositalari nafaqat she'rning go'zalligini oshiradi, balki bolaning tasavvurini, fikrlash qobiliyatini, ruhiy dunyosini kengaytiradi. Har bir badiiy vosita — bola bilan muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi.

Estetik ifoda vositalari orqali shoir bolalar ongiga badiiy go'zallikni olib kiradi. Bular bola ongida mustahkam joylashadigan, esda qoladigan timsollar orqali amalga oshadi. Shu bois badiiy vositalar bolalar she'riyatining muhim komponentidir.

Zamonaviy shoirlarning uslubiy yondashuvi

Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyati o'zining mavzu, uslub va ifoda vositalari jihatidan xilma-xil va boy. Har bir shoir o'z uslubini bola dunyosiga moslashtirgan, lekin bu moslashuv shoirlik mahorati evaziga yuksak badiiyat darajasiga ko'tarilgan. Ularning asarlarida o'ziga xos ruh, tovush, ohang va poetik estetik mezonlar mujassam.

Dilshod Rajab uslubi

Dilshod Rajab she'riyatida lirika, sokinlik, poetik musiqiylik ustun turadi. U tasvirlayotgan obrazlar — bulut, shamol, kaptar, daraxt — shunchaki manzara emas, balki bolaning ruhiy holatini ifoda etuvchi timsollardir. Uning she'rlarida suhbat usuli, ichki monolog, hissiyot bilan boyitilgan ifoda kuchlidir.

"Kaptar uchdi ko'nglimdan,

[5] Rajab D. Oq kaptar. — Toshkent: Yosh gvardiya, 2005. — B. 28.
[6] G'ulom G'. Men yetim emasman. — Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 1981. — B. 35.

Quyosh to'kdi ko'z yoshimni..."[7]

Bu satrlar obrazli, lekin haddan ziyod murakkab emas. Bola ularni o'qib his qiladi, unga shoirlikda chuqur falsafa emas, balki yurakka yaqinlik kerak bo'ladi. Aynan shu jihat Rajab she'riyatining asosiy kuchidir.

G'afur G'ulom uslubi

G'afur G'ulomda esa hayotiylik, realizm, ijtimoiylik asosiy o'rinda turadi. U bolaning kundalik hayotidagi quvonch va dardlarini she'rga olib kiradi. Uning satrlarida hazil, so'z o'yini, lekin shu bilan birga hayotiy saboq ham bor.

"Yomg'ir yog'di — yer kuldi,
Men yugurdim loy ichra."[8]

Bu kabi satrlar orqali shoir bolaning hayotini, harakatini, tabiatga munosabatini badiiy vositalar bilan ifoda qiladi. G'afur G'ulomning uslubi orqali bola o'zini ko'radi — bu esa bolalar she'riyatining eng muhim talabi.

Erkin Vohidov uslubi

Erkin Vohidov bolalar uchun yozgan she'rlarida falsafiy yondashuv, yengil lirika, va tabiiy ritm bilan ajralib turadi. Uning she'rlari tabiat, inson, bola va hislar uyg'unligidan iborat. Ko'proq katta yoshli bolalar (10–12 yosh) uchun mo'ljallangan she'rlarda poetik obrazlar chuqurroq bo'ladi.

"Quyosh yugurar yuragimda,
Yomg'ir to'kilar ko'nglimda."[9]

Bu kabi satrlar bolaning ichki dunyosiga kirib boradi, uni o'ylantiradi va ruhlantiradi. Vohidov uslubi poetik tafakkur orqali bola tasavvurini kengaytiradi.

Zamonaviy shoirlarning har biri o'z uslubiga ega, ammo ularni birlashtiruvchi jihat-bolaga yaqinlik, mazmunga soddalik, badiiylikka sadoqatdir. Har bir shoir o'z uslubi orqali bolaga estetik dunyo eshiklarini ochadi.

Obraz va poetik tafakkur uyg'unligi

Bolalar she'riyatida obraz va poetik tafakkur bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Obraz — poetik tafakkurning tashqi ko'rinishi, tafakkur esa — obrazga jon, ruh beruvchi ichki manba. Agar obraz go'zal bo'lsa-yu, unda tafakkur bo'lmasa, u faqatgina tasvir bo'lib qoladi. Aksincha, tafakkur bo'lsa-yu, obraz yetarli darajada kuchli bo'lmasa, u bola ongida o'z aksini topmaydi.

Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatida bu uyg'unlikni Dilshod Rajab, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov kabi shoirlar ijodida yaqqol ko'rish mumkin. Ularning har bir satri:
bola uchun tushunarli,
poetik zavq uyg'otuvchi,

[7] Rajab D. Oq kaptar. — Toshkent: Yosh gvardiya, 2005. — B. 35.
[8] G'ulom G'. Men yetim emasman. — Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 1981. — B. 42.
[9] Vohidov E. Tong nafasi. — Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 1974. — B. 51.

ruhiy tarbiya vositasi bo'lishi bilan ajralib turadi.

Masalan, Dilshod Rajabning quyidagi obrazli satrlarida poetik tafakkur va tuyg'u uyg'unligi seziladi:

"Kaptar ko'nglimga joy oldi,
Oy menga qarab kuldi."[10]

Bu yerda kaptar — tinchlik, erkinlik, poklik timsoli bo'lsa, oy — mehr va yorituvchi onalik ramzi sifatida tasvirlangan. Bola bu obrazlarni sezadi, his qiladi, o'z ongida jonlantiradi.

Erkin Vohidovda esa obraz va tafakkur uyg'unligi falsafiylik bilan to'lib-toshgan:

"Tong nafasi yuragimda,
Ertak bo'lib yashab yurdi."[11]

Bu yerda tong nafasi — yangi kun, yangi orzu, yangi his; ertak — go'zallik, orzular dunyosi. Bola bu obrazlar orqali hayotga ishonch, orzu qilish zavqini anglaydi.

Obraz va tafakkur uyg'un bo'lsa:
bola badiiy estetikani his qiladi,
she'r uni quvontiradi yoki hayajonga soladi,
eslab qoladi, yana o'qishni istaydi.

Bu uyg'unlik — bolalar she'riyatining estetik asosidir. Chunki bola mantiqdan ko'ra his-tuyg'u va tasvirlar orqali o'rganadi.

Obraz va poetik tafakkur uyg'unligi — bolalar she'riyatini chinakam adabiyot darajasiga olib chiqadi. Aynan shu uyg'unlik orqali bola ko'ngliga badiiyat urug'i qadalgani bois, u hayotni go'zalroq, orzularini kattaroq tasavvur qila oladi.

Xulosa.

Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyati bola qalbiga yo'l topish, uni estetik tarbiyalash, ma'naviy olamini boyitishning eng nozik va ta'sirchan vositasidir. Bu yo'lda shoirning poetik tafakkuri, obraz yaratish mahorati, til va tasvir vositalarini to'g'ri tanlashi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Maqolada ko'rib chiqilgan Dilshod Rajab, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov kabi adiblarning she'rlarida bolalar olamiga xos tasvirlar, bola ongiga yaqin obrazlar, his-tuyg'ular va ruhiy kechinmalar uyg'un tarzda namoyon bo'ladi. Har bir obraz bolaning tasavvur olamida jonlanadi, poetik tafakkur esa bu obrazlarga chuqur ma'no va estetik zavq baxsh etadi.

Zamonaviy shoirlarning bolalar she'riyatidagi uslubiy yondashuvi faqat didaktika emas, balki bola bilan muloqotning badiiy shakli sifatida qaralmoqda. Bu esa she'riyatni bolalar uchun nafaqat o'qilishi kerak bo'lgan matnga, balki seviladigan, esda qoladigan, tuyg'uga ta'sir qiladigan san'at asariga aylantiradi. Shu bois, obraz va poetik tafakkur

[10] Rajab D. Oq kaptar. — Toshkent: Yosh gvardiya, 2005. — B. 35.
[11] Vohidov E. Tong nafasi. — Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 1974. — B. 51.

uyg'unligi bolalar adabiyotining badiiy mezoni sifatida e'tirof etilishi, zamonaviy ijodkorlar uchun muhim estetik tamoyil bo'lib qoladi.

ANVAR OBIDJONNING "ONA YER" TO'PLAMI HAQIDA

K. Lapasova, talaba (ToshDO'TAU)

Anvar Obidjon qadim davrlardan buyon shakllanib kelayotgan o'zbek bolalar adabiyotining salmoqli ijodkorlardan biri hisoblanadi. U ko'plab asarlari bilan bolalar adabiyotining rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shib kelmoqda. Bugunga qadar Anvar Obidjon bolalarga bag'ishlangan ko'plab asarlarini to'plam ko'rinishida kichkintoylarga taqdim qilgan.

Bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvurini, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg'a intilishga chaqiradi. Hayotni chuqur sevishga yordam beradi. Bolalar adabiyotida didaktika ohangi ustun turadi. Anvar Obidjon ijodida esa yuqorida ko'rib o'tilgan xususiyatlaning deyarli barchasini ko'rishimiz mumkin.

Anvar Obidjonning bolalarga bag'ishlangan to'plamlari ichida "Ona yer" to'plami alohida o'ringa ega. Anvar Obidjon aynan shu to'plami bilan bolalar adabiyotiga shoir sifatida kirib kelgan. "Ona yer" to'plami 1974-yilda Toshkentda nashr etigan. To'plamga jami 47ta she'r 2ta she'riy ertak kiritilib, ular to'rtta bo'limga taqsimlangan. Birinchi bo'lim 9ta, ikkinchi bo'lim 23ta, uchinchi bo'lim 15ta she'r va to'rtinchi bo'lim 2ta she'riy ertakdan iborat. Bu to'plamga kiritilgan she'rlar bolalar uchun sodda, tushunarli tarzda bayon etilgan. Ushbu to'plamda bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lgan asarlar jamlangan. "Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi,"[1]-deydi Mamasoli Jumaboyev. Biz Anvar Obidjon ijodi bilan tanishar ekanmiz, bolalar yozuvchisiga qo'yilgan yuqoridagi bir qator talablarga yozuvchining ijodi javob bera olishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "Ona yer" to'plamidan joy olgan "Halollik" she'ri zamiriga har bir inson o'zi uchun o'zi mehnat qilishi lozimligi singdirilgan:

O'rdagim der: "Yo'q, rahmat,
Tutib beray nimasi.

MUNDARIJA

Bolalarning haqiqiy shaydosi (Anavar Obidjon tarjimayi holi).....3

TURSUNBOY ADASHBOYEV. Qushlar tabrigi.....8

QOZOQBOY YO'LDOSH. O'zlik sari yo'l.....10

BASHORAT JAMILOVA. Anvar Obidjon qissalarida erk va ozodlik motivlari ifodasi.....13

MIRAZIZ A'ZAM. Bolakaylarning minnatsiz xizmatkori.....16

MAHMUD SATTOROV. Bolalarning bayrami.....19

QURDOSH QAHRAMONOV. Chin oshiqlik qismati 28

GULNOZA JO'RAYEVA. Anvar Obidjon she'rlarida poetik obrazlar.....32

HULKAR HAMROYEVA. "Axir mening qarzim ko'p ona tuproqdan..."..... 36

RAHMON QO'CHQOR. Ajabtovur idrok usuli yoxud Anvar Obidjonning "Oltiariq hangomalari" kitobidan qolgan ilk taassurot.....43

SAID AHMAD. Farg'onada bittagina.....46

ABULAHAD O'RMONOV. Hurmatim baland.....51

MAHMUD SATTOROV. Alpomishning nevarasi.....52

AHMADJON MELIBOYEV. Eski "Bezgakshamol" haqida yangi gaplar.....57

ERKIN VOHIDOV. "Anvar Obidjon bilan faxrlanaman".....59

RAHMATULLA BARAKAYEV. Jonajonim she'riyat.....60

ALISHER IBODINOV. "Hayotning har lahzasi go'zal..."..... 68

XO'JAMUROD MIRHAYDAROV. Beg'ubor dunyo kuychisi.....70

RAHIMJON OTAYEV (OTAULI). Qissada inson qismati.....74

IBROHIM G'AFUROV. So'z to'lqinlari.....75

NABIJON SOLIYEV. Katta-yu kichikka manzur she'riyat.....78

KARIM BAHRIYEV. Bir kitob kulgi.....80

NUSRATULLA JUMAYEV. Mag'zi to'q she'rlar.....81

SHAHNOZA SAFARBOYEVA. Anvar Obidjon she'rlarida badiiy san'atlardan foydalanish mahorati.....149
NUMON NASRULLAYEV, DILNOZA JO'RAYEVA. Bola bo'la olgan bolalar yozuvchisi.....151
ShOHIDA MO'MINOVA. Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatida badiiy obraz va poetik tafakkur.....154
K. LAPASOVA. Anvar Obidjonning "Ona yer" to'plami haqida.....160
MUNDARIJA.....163